


# SIRDARYO VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA‘LUMOT

2021- yil 1- iyul holatiga ko‘ra  
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)






*Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.*

*Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning joylardagi markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.*

*Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalarini tashkil etildi. Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.*

*Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.*


*Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2021-yil 1-iyul holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.*



Mamlakatimizda qulay ish-bilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbir qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(2021- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



# Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni


(tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha  
2021- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)

4




## Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2021- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)




# Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar-iyun oyida)



# Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(yanvar-iyun oyida, birlikda)






# Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar




(2021- yil 1- iyul holatiga ko‘ra, birlikda)



Jami faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o‘tgan yilning shu davriga nisbatan **8,9** foizga oshdi



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar




# Sanoat yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(2021-yil 1-iyul holatiga ko'ra, birlikda)



Jami faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **16,4 foizga oshdi**



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar



**105**

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

**2 048**

Ishlab chiqarish sanoati

**22**

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

**38**

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

2021-yil 1-iyul holatiga ko'ra, sanoat korxonalar va tashkilotlari soni 2 213 tani tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 116,3 % ga oshdi.

Jami sanoat korxonalar va tashkilotlari ko'payishining asosiy omili – (o'tgan yilning mos davriga nisbatan), ishlab chiqarish (qayta ishlash) sanoatida – 117,2 % ga (jami sanoatdagi ulushi 92,5 %), tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 105,0 % ga (jami sanoatdagi ulushi 4,7 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 122,2 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,0 %) o'sishidir va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilishning 105,6 % ga (jami sanoatdagi ulushi 1,7 %) ko'payishiga sabab bo'ldi.




# Qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2021-yil 1-iyul holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **11,8** foizga oshdi




## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




**11,7** foizga oshdi




## Mikrofimlar




## Kichik korxonalar




## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar



**16,9** foizga oshdi




## Oilaviy korxonalar




## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



**9,1** foizga oshdi



## Xususiy korxonalar




**3,8** foizga kamaygan






# Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(2021- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)




## Kichik tadbirkorlik subyektlari soni




## Mikrofimlar




## Kichik korxonalar




## Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




## Oilaviy korxonalar



## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni




## Xususiy korxonalar






## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2021- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)







Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2021- yilning 1- iyul holatiga ko'ra 385 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 50 taga yoki 14,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 361 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 80 taga yoki 25,5 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2021- yil yanvar-iyun oyida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 39 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 93 taga yoki 70,4 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.


**Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni**  
(2021- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)

Tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ro'yxatdan o'tgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2021- yilning 1- iyul holatiga ko'ra 11 139 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 692 taga yoki 17,9 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 10 458 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1 621 taga yoki 18,3 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021- yil yanvar-iyun oyida yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar soni 1 176 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 333 taga yoki 22,1 % ga kamayganligini ko'rish mumkin.





Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2021- yil 1- iyul holatiga ko'ra 196 tani tashkil etib, ulardan 184 tasi yoki 93,9 % i faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 18 taga yoki 10,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.


2021- yilning yanvar-iyun oylarida Sirdaryo viloyatida 11 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(2021- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)




Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **5,0** foizga oshdi




### Kichik tadbirkorlik subyektlari soni



### Mikrofirmalar



### Kichik korxonalar






# Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni

(2021- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)

13




## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2021- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)

	2017- yil	2018- yil	2019- yil	2020- yil	2021- yil
<b>Jami</b>	<b>71</b>	<b>97</b>	<b>129</b>	<b>171</b>	<b>184</b>
<i>shu jumladan:</i>					
<b>Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi</b>	4	6	4	14	19
<b>Sanoat</b>	52	67	88	107	119
<b>Qurilish</b>	2	5	7	11	12
<b>Savdo</b>	8	10	18	24	23
<b>Tashish va saqlash</b>	2	4	5	4	3
<b>Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar</b>	-	1	1	1	1
<b>Axborot va aloqa</b>	-	-	1	2	1
<b>Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish</b>	-	-	-	-	-
<b>Boshqa turlar</b>	3	4	5	8	6

# Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(2021- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)





# Hududlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni

(2021- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)


15

	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonalar	xorijiy korxonalar
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>184</b>	<b>117</b>	<b>67</b>
<b>Guliston sh.</b>	<b>46</b>	<b>28</b>	<b>18</b>
<b>Yangiyer sh.</b>	<b>21</b>	<b>9</b>	<b>12</b>
<b>Shirin sh.</b>	<b>5</b>	<b>5</b>	<b>-</b>
<b>Oqoltin</b>	<b>4</b>	<b>1</b>	<b>3</b>
<b>Boyovut</b>	<b>7</b>	<b>3</b>	<b>4</b>
<b>Sayxunobod</b>	<b>11</b>	<b>7</b>	<b>4</b>
<b>Guliston</b>	<b>5</b>	<b>4</b>	<b>1</b>
<b>Sardoba</b>	<b>10</b>	<b>7</b>	<b>3</b>
<b>Mirzaobod</b>	<b>16</b>	<b>9</b>	<b>7</b>
<b>Sirdaryo</b>	<b>52</b>	<b>42</b>	<b>10</b>
<b>Xovos</b>	<b>7</b>	<b>2</b>	<b>5</b>

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning asosiy qismi Sirdaryo tumanida 52 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 28,3 %), Guliston shahrida 46 ta (25,0 %), Yangiyer shahrida 21 ta (11,4 %), Mirzaobod tumanida 16 ta (8,7 %) hamda Sayxunobod tumanida 11 tani (6,0 %) tashkil etadi.

# Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2021-yil 1-iyul holatiga ko'ra, birlikda)




2021-yil 1-iyul holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Guliston shahri (28,6 %), Yangiyer shahri (6,7 %), Shirin shahri (2,6 %), Sirdaryo (14,3 %), Sayxunobod (7,9 %), Boyovut (7,9 %), Guliston (7,4 %), Mirzaobod (8,4 %), Oqoltin (5,6 %), Xovos (5,5 %), Sardoba (5,1 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha soni

(2021-yil yanvar-iyun oyida, birlikda)


2021-yil yanvar-iyun oyida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar hududlar kesimida taqsimlanganda, ularning soni Guliston shahri (25,6 %), Yangiyer shahri (5,5 %), Shirin shahri (3,0 %), Sirdaryo (13,9 %), Sayxunobod (7,3 %), Boyovut (8,9 %), Guliston (6,7 %), Mirzaobod (9,5 %), Oqoltin (6,9 %), Xovos (5,5 %), Sardoba (7,2 %) tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.






# Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining hududlar kesimidagi soni

(2021- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)




## Faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimidagi soni

(2021- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda)



2021- yil 1- iyul holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan mas'uliyati cheklangan jamiyatlarning hududlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi, Guliston shahri (25,5 %), Yangiyer shahri (7,7 %), Shirin shahri (2,3 %), Sirdaryo (16,1 %), Sayxunobod (8,2 %), Boyovut (7,4 %), Guliston (6,8 %), Mirzaobod (9,1 %), Oqoltin (5,7 %), Xovos (5,8 %) va Sardoba (5,4 %) tumanlari hissalariga tegishli.


## Hududlar kesimida jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar taqsimlanishi (2021- yil 1- iyul holatiga ko'ra, jamiga nisbatan ulushi, % da)



2017-2021- yillarda rivojlanishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning uchinchi muhim yo'nalishi - xalqaro iqtisodiy hamkorlikni yanada rivojlantirish hisoblanadi. Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonini o'sib borishi, eng avvalo, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining qonuniy asoslari takomillashib borayotgani bilan izohlanadi.

# Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar hududlar bo'yicha soni


(2021- yilning yanvar-iyun oyida, birlikda)




2021- yilning yanvar-iyun oyida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar, hududlar kesimida taqsimlanganda Guliston shahri (30,8 %), Yangiyer shahri (7,7 %), Shirin shahri (2,6 %), Sirdaryo (20,5 %), Sayxunobod (7,7 %), Boyovut (5,1 %), Guliston (15,4 %), Mirzaobod (7,7 %), Xovos (2,6 %) tumanlari ulushiga to'g'ri keladi.

# Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2021- yilning yanvar-iyun oyida, birlikda)



O'tgan yilga nisbatan % da





## Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri** – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

**Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar.

**Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar** – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar.

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar** – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 275-son qarorining 1-ilovasiga muvofiq kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining [www.stat.uz](http://www.stat.uz) va Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasining [www.sirstat.uz](http://www.sirstat.uz) rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Sirdaryo viloyati statistika boshqarmasi**  
**Statistik registrlarni yuritish bo'limi**  
Tel.: (67) 236-86-37